

**“YURISPRUDENSIYA: BIZNES HUQUQI” TA’LIM YO‘NALISHI UCHUN SUHBAT
IMTIHON SAVOLLARI**

T/r	SAVOLLAR
	I Bo‘lim. Mamlakatda huquqshunoslik sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.
1.	Mamlakatimizda Yurisprudensiya sohasida olib borilayotgan islohotlarni aytib bering.
2.	Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston - huquqiy davlat, deb belgilab qo‘yildi. Bu nimani anglatadi?
3.	Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekiston – dunyoviy davlat, deb belgilangan. Buning ahamiyati nimada?
4.	Davlat o‘z faoliyatini jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida amalga oshirishi nimani anglatadi?
5.	Mamlakatimizda Yurisprudensiya sohasidagi bo‘layotgan islohotlarga sizning fikr mulohazalaringiz.
6.	Konstitutsiyada “Ijtimoiy birdamlik” prinsipining aks ettirilishi jamiyat hayotida qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi?
7.	O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega deganda nimalar tushuniladi, uning ahamiyati qanday?
8.	“Miranda qoidasi” tushunchasi va mazmun – mohiyati nima hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga “Miranda qoidasi”ga oid qanday yangiliklar kiritildi?
9.	Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi to‘g‘risidagi qoidani belgilash nima uchun zarur?
10.	O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi sifatida xalqaro shartnomalarning tan olinishiga doir qoidaning Konstitutsiyaga kiritilganligining ahamiyati nimada?
11.	O‘zbekiston Konstitutsiyasining birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, Konstitutsiyaning birinchi bo‘limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emasligini belgilashning ahamiyati nimada?
12.	Konstitutsiyaga tashqi siyosatning asosiy prinsiplaridan biri sifatida “davlatlarning hududiy yaxlitligi” prinsipining kiritilganligi qanday ahamiyatga ega?
13.	Insonning huquq va erkinliklari harkimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi, degan yangi konstitutsiyaviy norma qanday mazmun va ahamiyatga ega?
14.	Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga hamda Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etilishi nimani anglatadi?
15.	Inson huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi nimani anglatadi?
16.	Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi to‘g‘risidagi normaning Konstitutsiyaga kiritilishi nimani anglatadi?
17.	Inson sha’ni va qadr - qimmatini daxlsizligi belgilanishining ahamiyati nimada?

18.	“Insonga nisbatan davlat organlari tomonidan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli va mutanosib bo‘lishi kerak”, degan konstitutsiyaviy qoidaning mazmun –mohiyati nimalardan iborat?
19.	Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan qonunchilikdagi nomuvofiqliklarni hal etish bo‘yicha qanday tartib belgilangan?
20.	Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada insonning huquq va erkinliklarini cheklash asoslari bo‘yicha qanday norma belgilangan?
21.	“O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” tamoyillarini mustahkamlash, iqtisodiy islohotlar jarayonida inson manfaatlarini ta‘minlash bosh mezon bo‘lishini ta‘minlashning asosiy maqsadi nimadan tashkil topgan?
22.	Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida huquq sohasida belgilangan keng ko‘lamli vazifalar nimadan iborat?
23.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalarini tahlil qiling?
24.	Inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar implementatsiyasida BMT konvensiyaviy hujjatlari muhim ahamiyatga ega. Aytingchi, O‘zbekiston bu borada qanday amaliy ishlar va islohotlar amalga oshirmoqda?
25.	So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan Konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy maqsadi va ularning muhim g‘oyasi.
26.	O‘zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning huquq va burchlari deganda nimani tushunasiz? Inson huquqlari haqida xalqaro hujjatlarni sanab o‘ting.
27.	Taraqqiyot strategiyasining yurisprudensiya yo‘nalishiga maqsad va vazifalarining keng ko‘lamligi va muhim jihatlarni tushuntirib o‘ting.
28.	Ochiqlik, shaffoflik, oshkoralik usullari faoliyati hozirgi islohotlar jarayonidagi o‘rni va uning tashkilotlardagi muhim elementlari.
29.	Davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolar qanday ishtirok etadi? So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan islohotlar zahirida tushuntirib bering.
30.	Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari tizimi deganda nimani tushunasiz va Konstitutsiya normalarini tahlil etgan holda uning mazmunini yoritib bering.
31.	Hozirgi kunga qadar Konstitutsiyamizga necha marotaba qo‘shimcha o‘zgartirishlar kiritilgan? So‘nggi yillarda kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni keltirib o‘ting.
32.	O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi islohotlari nimalarda aks etadi?
33.	Gender tenglik deganda nima tushunasiz. Yangi O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash borasida qanday amaliy islohotlar amalga oshirilmoqda?
34.	Davlat xizmatlari agentligining asosiy vazifalari va "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyilining asosiy mazmuni yoritib bering.
35.	O'zbekiston Respublikasida Davlat fuqarolik xizmati sohasidagi amalga oshirilgan islohotlarni yoritib bering.
36.	O‘zbekiston Respublikasida prokuratura sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.

37.	O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmagan huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
38.	O'zbekiston Respublikasida advokatura sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
39.	O'zbekiston Respublikasida oila huquqi sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
40.	O'zbekiston Respublikasida notariat sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
41.	O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
42.	Ayrim davlatlarda konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar faqat referendum o'tkazish yo'li bilan kiritiladi. Bunday tartibning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tartibiga nisbatan qanday salbiy va ijobiy jihatlari mavjud deb o'ylaysiz?
43.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 111-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi sudyalarning hamjamiyati organi hisoblanadi. "Sudyalarning hamjamiyati" o'z mazmuniga ko'ra sudyalari jamoat birlashmasining bir ko'rinishidir. Mazkur organ tomonidan sudyalari korpusini shakllantirishining konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlari yoritilgan.
44.	Konstitutsiyaviy huquqda asosan ikki yirik huquq instituti, ya'ni inson huquqlari hamda davlat hokimiyatini tashkil etish va uni amalga oshirish bilan bog'liq institutlar mavjud. Ushbu institutlarning o'zaro nisbati qanday va ular o'rtasidagi munosabatlar nimalarda namoyon bo'ladi?
45.	Konstitutsiya ijtimoiy hayotning barcha sohalariga nisbatan ta'siriga ko'ra, bir qator funksiyalarga ega. Ushbu funksiyalarning bir-biriga nisbatan aloqasi bor, deb hisoblaysizmi? Agar ular o'rtasida aloqa mavjud bo'lsa, u nimalarda aks etadi?
46.	Konstitutsiyaviy huquq shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosatlarni tartibga solishi aytiladi. Mazkur munosabatlarga amaliy misollar keltirgan holda ixoh bering.
47.	Konstitutsiyaviy huquq shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosatlarni tartibga solishi aytiladi. Mazkur munosabatlarga amaliy misollar keltirgan holda izoh bering.
48.	Huquq ustuvorligi va Konstitutsiyaning ustunligi o'rtasida qanday farq bor deb o'ylaysiz?
49.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 17-moddasida O'zbekiston tashqi siyosatda asoslanadigan qoidalar mustahkamlangan. Ulardan biri davlatlarning suveren tengligi qoidasidir. Sizningcha, mazkur qoida davlatning ichki suverenitetiga nisbatan qanday ta'sirga ega?
50.	O'zbekiston Respublikasida ekologiya huquqi sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
51.	O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik huquqi sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
52.	O'zbekiston Respublikasida ta'lim huquqi sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
53.	O'zbekiston Respublikasida istemochilar huquqlari sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.

54.	O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jalik huquqi sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
55.	O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
56.	Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yuridik ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qiling.
57.	Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qiling.
58.	Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qiling.
59.	Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud hokimiyati tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qiling.
60.	O'zbekiston Respublikasida ma'muriy hududiy tuzilish sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
II Bo'lim. Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)	
1.	Yurisprudensiya sohasida bo'lajak mutaxassis qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?
2.	Yurisprudensiya sohasida mutaxassisning jamiyat hayotidagi o'rnini qanday baholaysiz?
3.	Yurisprudensiya sohasida kadrlar tanlashda qanday me'yorlarga amal qilish kerak?
4.	Yurisprudensiya sohasida mutaxassisning jamiyat hayotidagi o'rnini qanday baholaysiz?
5.	Yurisprudensiya sohasini tanlashda ijtimoiy muhit qanchalik ahamiyatga ega?
6.	Yurisprudensiya sohasida "karyera zinapoyasi" imkoniyatlarini qanday tasavvur qilasiz?
7.	Yurisprudensiya sohasiga individual yondashish va ijtimoiy yondashish deganda nimani tushunasiz?
8.	Yurisprudensiya sohasida shaffoflik va odillik prinsiplari haqida gapiring.
9.	Yurisprudensiya sohasida mutaxassisning muomala madaniyati haqida gapiring
10.	Yurisprudensiya sohasida mutaxassis faoliyatida qanday motivatsiyalar bo'lishi kerak?
11.	Yurisprudensiya sohasini tanlashda siz uchun muhim jihatlar nimalarda namoyon bo'ladi?
12.	Yurisprudensiya sohasini rivojlantirish uchun siz imkoniyatlaringizni qanday baholaysiz?
13.	Yurisprudensiya sohasini rivojlantirishning kasbiy talablarini izohlang.
14.	Yuridik kasbga yo'naltirishning psixologik omillari.
15.	Yurisprudensiya sohasida korporativ muhitni shakllantirish bosqichlari qanday?
16.	Yurisprudensiya sohasida faoliyat yuritish siz uchun qanchalik ahamiyatli?
17.	Nima sababdan siz yurisprudensiya sohasini tanlayapsiz, fikringizni bir necha faktlar bilan bayon eting?
18.	Yuridik terminlar laboratoriyasi deganda nimalarni tushunasiz?
19.	Huquq sohalari va huquq tarmoqlarini bir biridan farqini tushintirib bering?
20.	Huquqiy institut tushunchasiga ta'rif bering va bir necha huquqiy institutlarni sanab bering?
21.	Davlat funksiyalarini tasniflashga qanday mezonlar asos bo'ladi?

22.	Ijtimoiy normalar va huquq o'rtasidagi o'zaro farqli va o'xshash jihatlarni tahlil eting.
23.	Qonun va konstitutsiviy qonunlarining o'zaro nisbatini va farqli tomonlarini muhokama qiling.
24.	Qonuniylikni siyosiy-huquqiy hodisa, rejim va tamoyil sifatida ham tushunish lozimligini izohlab bering.
25.	Qonunchilikni tizimlashtirishda kodifikatsiyalashning amaliy ahamiyati va ijobiy tomonlarini izohlab bering.
26.	Monarxiya davlat boshqaruvining shakli sifatida o'ziga xos xususiyatlari va turlarini sanab o'ting.
27.	Qonunni rasmiy sharhlash aktlarining yuridik tabiati va ahamiyatini yoritib bering.
28.	O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati tizimida sud organlarining o'rnini izohlang.
29.	O'zbekiston Respublikasida huquqning asosiy manbalarini sanab o'ting va tushuntiring.
30.	Xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikda implementatsiya qilish masalalariga izoh bering.
31.	Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasining mohiyatini yoritib bering.
32.	Hokimiyatlar taqsimlanishi printsipining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash orqali uning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
33.	Huquqiy islohotlarning asosiy yo'nalishi sifatida huquqiy sohada liberallashtirishning mohiyatini izohlab bering.
34.	Huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm tushunchalarini yoritib va ularni atroflicha muhokama eting.
35.	Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning farqli jihatlarni tushuntirib bering.
36.	Ijtimoiy normalar va huquq o'rtasidagi o'zaro farqli va o'xshash jihatlarni tahlil eting.
37.	Qonun va konstitutsiyaviy qonunlarining o'zaro nisbatini va farqli tomonlarini muhokama qiling.
38.	Konstitutsiyada shaxsiy xayot daxlsizligi huquqi qanday belgilangan?
39.	Ombudsman kim va uning vazifalari qanday?
40.	Konstitutsiyada fuqarolarning saylov huquqlari qanday belgilangan?
41.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini qonunchilik doirasida yoritib bering.
42.	Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega sub'ektlar haqida ma'lumot bering.
43.	Qanday xolatlarida Qonunchilik palatasi va Senati tarqatib yuborilishi mumkin?
44.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tuzilishi va shakllantirish tartibi haqida ma'lumot bering.
45.	Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasiga atroflicha to'xtaling.
46.	Saylov tizimining konstitutsiyaviy va huquqiy asoslariga tavsif bering.
47.	O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv shaklini tushuntirib bering.
48.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday normativ-huquqiy xujjatlar chiqaradi va Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibini yoritib bering.
49.	Huquq va muomila layoqati deganda nimani tushunasiz?
50.	Vasiylik va homiylik deganda nimani tushunasiz?
51.	Yuridik va jismoniy shaxs tushunchasiga ta'rif bering va turlari haqida nimalarni bilasiz.
52.	Gender tengligining konstitutsiyaviy asoslarini muhokama eting. Sizningcha, gender tengligi nimani anglatishi lozim?
53.	Aybsizlik prezumpsiyasining mazmun-mohiyati nimadan iborat? Fikringizni hayotiy misollar yordamida bayon eting.

54.	Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini miting, yig'ilish va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Miting, yig'ilish va namoyish o'rtasida qanday farqlar bor deb o'ylaysiz?
55.	Sud tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishi degandan nimani tushunasiz? Fikringizni misollar yordamida ifodalang.
56.	O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlari nimalardan iborat?
57.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.
58.	Fuqarolarning murojaat qilish huquqini amalga oshirish huquqiga ega ekanligini tushuntirib bering. Murojaat turlari o'rtasida qanday farqlar bor deb o'ylaysiz?
59.	O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi va boshqaruv shaklining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
60.	O'zbekiston Respublikasida fuqarolik masalalari, qabul qilish va chiqarish tartibini yoritib bering.
III Bo'lim. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)	
1.	Yurisprudensiya sohasida bozor ehtiyoji va qiziqishlariga kasbiy munosabatda bo'lish talablari.
2.	Yurisprudensiya sohasida XXI asrda mehnat munosabatlarida kasbiy etikaning ahamiyati.
3.	Yurisprudensiya faoliyatida o'ziga xos huquqiy qadriyatlar.
4.	Yurisprudensiya kasbiy faoliyatida burch va majburiyatlar
5.	Yuridik kasbiy etikaning asosiy xususiyatlari.
6.	Yurist faoliyatida tashabbuskorlik, kreativlik va masalaga ijodiy yondashuv.
7.	Kasbga oid axloq qoidalari yurisprudensiya sohasida.
8.	Yurist kasbga oid odob - axloq qoidalari qanday bo'lishi kerak.
9.	Insonparvarlik va fidoyilikning kasb odob – axloqiga ta'siri.
10.	Yuridik xizmatidagi xodimning huquqiy va axloqiy madaniyati.
11.	Huquqshunos nutqini tayyorlash va uni so'zlash talablari. Auditoriya diqqatini jalb etish usullari.
12.	Yuridik faoliyatda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning namoyon bo'lishi.
13.	Yurist faoliyatida tanqidiy fikrlashning ahamiyati.
14.	Vaqtning huquqshunos hayoti va mehnat faoliyatidagi ahamiyati.
15.	Huquqshunosning professional faoliyatida shaxsiy fazilatlarining roli va ahamiyati.
16.	Adolat – yuridik xizmat xodimlarining asosiy xususiyati sifatida.
17.	Korrupsiya – yurist kasbi etikasidagi illat sifatida tushuntirib bering.
18.	Yuridik kadrlarning yurtimizda adolatli jamiyat barpo etish va mamlakatimizning xalqaro obro'si yuksalishidagi roli.
19.	Mantiqiy fikrlash va mazmunli ifodalashning yurist faoliyatidagi roli.
20.	Huquqshunosning shaxs sifatida shakllanishi: talab va me'zonlar.
21.	Huquq sohasida to'g'ri qaror qabul qilishni shakllantirish metodlari.
22.	Huquq sohasida mantiqiy fikrlashning rivojlanganlik darajasi.

23.	Yuristlar jamoasi hamda jamiyatda ijobiy shaxsiy imijni shakllantirish yo'l-yo'riqlar.
24.	Huquq sohasida tanqidiy fikrlashning ahamiyati.
25.	Yuristning kasbiy axloqi tushunchasi. Umumiy va xususiy jihatlar.
26.	Huquqshunos kasbiga qo'yilgan talablar va majburiyatlar.
27.	Huquqshunos kasbining muvaffaqiyatining asosiy omillari.
28.	Advokat rioya etadigan axloqiy qoidalar.
29.	Yuridik nutq turkumlari va ularning amalga oshirish xususiyatlari
30.	Tergov va prokuratura organlari xodimlari faoliyatining axloqiy talablari.
31.	Sudyalik kasbida xolislik, adolatparvarlik, halollik prinsiplari.
32.	Yurist uchun "mobil" ko'nikmalarning eng muhimlari qaysilar, deb hisoblaysiz?
33.	Huquqshunosning o'z karerasi haqida o'ylashi, avvalo, maqsalarini puxta rejalashtirishdan boshlanishi lozim, degan qarashni biror huquqshunoslik kasbi misolida yoritib bera olasizmi?
34.	Nutq turlari haqida fikr yuriting. Ijtimoiy siyosiy notiqlik; Akademik notiqlik; Ijtimoiy maishiy notiqlik; Diniy notiqlik
35.	Huquq sohasida mantiqiy fikrlashning omillari, talab va mezonlari.
36.	Yurist karyerasini rejalashtirishda "SMART" texnologiyasining qo'llanilishi.
37.	"Soft skills" (yumshoq ko'nikmalar) mohiyati, uning huquqshunos mutaxassis shakllanishdagi roli.
38.	"Hard skills" (qattiq ko'nikmalar) mohiyati, uning huquqshunos mutaxassis shakllanishdagi roli.
39.	Yuridik faoliyatda deduktiv, induktiv va analogiya bo'yicha xulosa chiqarishning ahamiyati.
40.	Huquqshunoslik kasbi o'zining qaysi alohida xususiyatlari bilan boshqa kasblardan farqlanadi, deb hisoblaysiz?
41.	Yuridik argumentatsiya. Yuridik asoslashning yurist faoliyatidagi roli.
42.	Huquq sohasida kreativlik deganda siz nimani tushunasiz? Uning ijodkorlik tushunchasi bilan o'xshash va farqli jihatlarini ajratib bera olasizmi?
43.	Yurist karyerasini rejalashtirishda "SMART" texnologiyasining qo'llanilishi.
44.	Yurist faoliyatida Kundalik kichik maqsadlarni amalga oshirishda Uch Harvard savoli texnikasi.
45.	Huquqshunos faoli" Dekart kvadrati" usuli va ahamiyati
46.	Huquq sohasida induksiya va deduksiya tushunchasi va xususiyatlari.
47.	Huquqshunosning tashabbuskorligi, kreativligi va masalaga ijodiy yondashuvi faqat qonunlar doirasida, ularga amal qilgan holda qo'llanilishi lozim, degan talabni izohlab bera olasizmi?
48.	"Karyera missiyasi"ni shakllantirishda huquqshunos o'ziga berishi lozim bo'lgan savollar kelajakda qanday natijalarga kafolat bo'ladi?
49.	Tashabbuskorlik - qonun ijodkorligi, qonunlarni hayotga tatbiq qilish va huquqiy targ'ibotning muhim omili.
50.	Huquqiy konsultatsiya va muzokaralar bosqichlari yoki muzokaralar mazmuni yoritib bering.
51.	Adolat, kasbga sadoqat, mas'uliyat va halollik - huquqshunos kasbining muhim talablari.
52.	Huquqshunoslik faoliyatida simpatiya, antipatiya va empatiya tushunchalarining taassurotdagi roli.
53.	Manfaatlar to'qnashuvi va yuridik faoliyatda unga yo'l qo'yib bo'imasligi bo'yicha fikr yuriting.

54.	To'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va shakllantirish metodlari.
55.	O'zbekiston huquqshunoslaridan soha rivoji va takomili yo'lida qanday tashabbuslar ko'rsatish, o'zlarining qaysi jihatlarini ko'proq namoyon qilish talab etilyapti? Fikrlaringizni asoslang.
56.	Huquqshunosning shaxs sifatida shakllanishi: talab va me'zonlar.
57.	Huquq sohasida SWOT tahlilini amalga oshirsa bo'ladimi? Agar amalga oshirish uchun qanday takliflar bergan bo'lardingiz?
58.	Yurist imiji, shaxsiy imij tushunchalari, ularning mohiyati.
59.	Yurist imijining motivatsion xususiyatlari.
60.	Huquqshunosning o'zini o'zi rivojlantirishda to'siqlarni bartaraf etish usullari.
IV Bo'lim. Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.	
1.	Qonunchilikdagi yuridik muammolar haqida fikr yuriting?
2.	Yuridik sohada asosiy va qo'shimcha kasbiy prinsiplarni shakllantirish hamda ko'nikmalarni egallash borasida fikr bildiring.
3.	Yuridik fanlar klassifikatsiyasini tahlil qiling.
4.	Emansipatsiya to'g'risida tushuncha va uni amalga oshirish.
5.	Yuridik sohani rivojlanishida to'siq bo'layotgan omillar va ularning sabablari.
6.	O'zbekiston Respublikasida huquqning asosiy manbalari ko'rsatib bering.
7.	Shaxslarning sukut saqlash huquqini tahlil qiling.
8.	Huquq normasini rasmiy va norasmiy sharhlashning bir biridan farqini izohlab bering.
9.	Davlat tushunchas, turlari va uning paydo bo'lishi haqidagi qarashlar.
10.	Huquq normasi va uning tarkibiy tuzilishi.
11.	Huquq ijodkorligi turlari va bosqichlari.
12.	Huquqbuzarlik tushunchasi va turlari
13.	Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllari.
14.	Huquqiy ong va huququiy madaniyat tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyati.
15.	O'zbekistondagi huquq institutlari, sohalari va huquq tizimi.
16.	Davlat mexanizmi va apparati tushunchasini tahlil qiling.
17.	Huquqiy tizim va huquq tizimi tushunchasi.
18.	Davlatning boshqaruv shakli va turlarini tushuntiring.
19.	Normativ - huquqiy hujjatlar tushunchasi va turlari.
20.	Davlatning tuzilish shakli va turlarini tushuntiring.
21.	Huquqiy davlat tushunchasini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida tahlil qiling.
22.	Huquqbuzarlik subyektiv tomonining zaruriy belgisini va uning tarkibiy elementlarini tushuntirib bering.
23.	Huquqbuzarlikning yuridik tarkibini tahlil qiling.
24.	Huquqbuzarlik tushunchasiga ta'rif bering va uning asosiy belgilari haqida fikr yuriting.
25.	Qonun ijodkorligi jarayonida qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlarining o'rnini izohlang.

26.	Davlat organlarini turli ko'rsatkichlarga ko'ra tasniflang va ular uchun umumiy bo'lgan jihatlarni ko'rsating.
27.	Qonun ijodkorligi jarayonining tushunchasi, prinsiplari va bosqichlarini muhokama eting.
28.	Yuridik javobgarlikning maqsadi. Yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlarni bayon eting.
29.	O'zbekiston Respublikasida yuridik javobgarlikni liberallashtirish borasidagi sud-huquq islohotlari.
30.	Qonundagi kolliziyalar tushunchasi, sabablari va bartaraf etish yo'llarini muhokama qiling.
31.	Qonunchilikni tizimlashtirishda kodifikasiyalashning amaliy ahamiyati va ijobiy tomonlarini izohlab bering.
32.	Huquq tizimi tushunchasi va tarkibiy elementlarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bering.
33.	Huquq ijodkorligi jarayonida yuridik texnikaning rolga atroflicha yoritib bering.
34.	Qonun nima va uning normativ-huquqiy hujjatlar tizimidagi o'rnini tushuntirib bering.
35.	Huquq manbalari va huquqiy tizimlarning tushunchasi va mazmun mohiyatini tahlil qiling.
36.	Sanksiya tushunchasi, turlari va o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering. Turlari bo'yicha qonunchilikdan misollar keltiring.
37.	Monarxiya davlat boshqaruvining shakli sifatida o'ziga xos xususiyatlari va turlarini tahlil qiling. Misollar keltiring.
38.	Norasmiy sharhlashning ilmiy (doktrinal), kasbiy (professional) va oddiy ko'rinishlari mavjud. Ularni muhokama qiling va tushuntirib bering.
39.	Normativ-huquqiy hujjatlarning shaxslar doirasi bo'yicha amal qilishini izohlab bering
40.	O'zbekistonda davlat organlari tizimida ijro hokimiyatining tutgan o'rnini ko'rsatib bering. Uning huquqiy nuqtai nazardan tahlil qiling.
41.	Huquqbuzarlik tushunchasi va uning turlari. Jinoiy huquqbuzarliklar.
42.	Normativ sharhlashning turlarini ko'rsatib bering va ularni muhokama qiling.
43.	Normativ-huquqiy hujjatlar vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilish doirasini muhokama qiling.
44.	Huquqbuzarlik tushunchasi va uning turlari. Ma'muriy huquqbuzarliklar.
45.	Huquqbuzarlik tushunchasi va uning turlari. Intizomiy huquqbuzarliklar.
46.	Parlamentar respublika tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering. Misollar keltiring.
47.	Prezidentlik respublikasi, uning tushunchasi va o'ziga xos jihatlari ko'rsatib bering. Fikringizni aniq misollar bilan asoslang.
48.	Normativ-huquqiy hujjatlarni mamlakatning butun hududida bir xil qo'llanilishi va talqin etilishi.
49.	Respublika boshqaruvi shakli turlarini aniqlang va ularning o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini izohlang.
50.	Huquq sohalari tushunchasi va turlarini tahlil qiling.
51.	Siyosiy rejim (tartib) tushunchasi va turlarini tahlil eting.
52.	Sud presedentining amaliy ahamiyati va uning o'ziga xos tomonlarini muhokama qiling
53.	Jinoiy jazo tushunchasi va maqsadini yoritib bering.
54.	Ma'muriy jazo tushunchasi va maqsadini yoritib bering.
55.	Intizomiy jazo tushunchasi va maqsadini yoritib bering.

56.	O'zbekiston Respublikasida huquqning asosiy manbalari ko'rsatib bering.
57.	Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning farqli jihatlarini tushuntirib bering.
58.	Axloq va huquq normalari o'rtasidagi o'zaro farqli jihatlarni tahlil eting.
59.	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari va turlari.
60.	Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari haqida nimalarni bilasiz?